
Ҳаж ва Умра зиёратига боришни ташкил этиш

HAJ va UMRA ziyoratiga borishni tashkil etish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etish, ularni tashkil qilish bo'yicha fuqarolar arizalarini qabul qilish interaktiv davlat xizmati



Andijon viloyati fuqarolari diqqatiga !

Haj safariga borish uchun ro`yxatga olish va rasmiylashtirish tartibi hamda vazifalar.
Haj safariga borish uchun navbat ro`yxatiga kirish bo`yicha fuqarolar doimiy turar joyidagi mahalla fuqarolar yig`iniga murojaat etishi lozim.
Mahalla fuqarolar yig`inlariga fuqarolarni Haj safariga borish istagida bo`lgan fuqarolarni ro`yxatga olishda quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- fuqaro Haj safariga borish uchun ariza bilan mahalla fuqarolar yig`iniga murojaat etish va unga 2 ta (3,5 x 4,5 hajmda) fotosurat, pasport nusxasini ilova qilish;

- mahalla fuqarolar yig`ini huzuridagi Haj komissiyasi fuqaro tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o`rganib chiqish;

- yil davomida Haj safariga borish bo`yicha murojaat etgan fuqarolarni mahalla fuqarolar yig`ini tomonidan tikilgan, raqamlangan, muhrlangan, imzolangan daftarga tartib asosida ro`yxatga olish, unda ro`yxatga faqat O`zbekiston Respublikasi fuqarolarini qayd etish hamda doimiy istiqomat qiladigan manziliga ko`ra olish;

- mahalla fuqarolar yig`ini tomonidan maxsus tikilgan, raqamlangan, muhrlangan daftardan ketma-ketlikda tuman Haj jamoatchilik Kengashiga berilgan kvotaga asosan tavsiya qilish.

Mahalla fuqarolar yig`ini haj safariga borish uchun tavsiya etishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- belgilangan kvotaga va maxsus tikilgan, raqamlangan, muhrlangan daftardagi navbatga rioya etish;

- ro`yxatga Haj safariga bormagan hamda 40 yoshdan oshgan fuqarolarni tavsiya etish;

- tavsiya etilayotgan fuqaroning salomatligi bo`yicha oilaviy poliklinika va tibbiyot muassasalarining xulosalarini olish;

- tavsiya etishda mahalla fuqarolar yig`inida arizachilar ishtirokida muhokama qilish;

- ayollarni tavsiya etishda mahram masalasiga e'tibor berish;

(Izoh: 46 yoshgacha bo`lgan ayol kishi uchun mahram qoida tariqasida otasi, akasi, ukasi, turmush o`rtog`i, o`g`li bo`lishi mumkin hamda Saudiya Aribistoni Podshohligining talabiga asosan 46 yoshdan oshgan ayoldan mahram talab etilmaydi).

- tavsiya etilgan fuqaroning tegishli hujjatlarini o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirib, tuman Haj jamoatchilik Kengashiga taqdim etish.

Tuman Haj komissiyasi vazifalari:

- mahalla fuqarolar yig`inlari huzuridagi Haj komissiyasi ishini muvofiqlashtirish, uslubiy yordam berish va adolat mezonlari buzilmasligini nazorat qilish;

- Andijon viloyati Haj Hay`ati tomonidan berilgan kvotani mahallalarga taqsimlash;

- mahalla fuqarolar yig`ini huzuridagi Haj komissiyasi tomonidan belgilangan kvotaga asosan tavsiya etilgan fuqarolarning hujjatlarni olish va umumlashtirish;

- tavsiya etilgan fuqarolarning hujjatlarini ko`rib chiqish;

- Haj safariga borish uchun fuqarolar ro`yxati va ularning hujjatlarini so`ralgan muddatda Andijon viloyati Haj Hay`atiga taqdim etish;

- fuqarolarning Haj safariga borish bo`yicha tavsiya qilish bilan bog`liq masalasiga doir ariza, taklif va shikoyatlarini ko`rib chiqib, javob berish.

Andijon viloyati Haj Hay`atining vazifalari:

- Tuman Haj komissiyasi ishini muvofiqlashtirish, uslubiy yordam berish va adolat mezonlari buzilmasligini nazorat qilish;

- Respublika Haj Jamoatchilik Kengashi tomonidan Andijon viloyatiga ajratilgan kvotadan kelib chiqib,

belgilagan yilda Haj safariga fuqarolarni yuborish uchun tumanlar kesimida kvota ishlab chiqish hamda taqdim etish;

- belgilangan yil uchun tuman Haj komissiyasidan ro`yxat va hujjatlarni olish hamda ularni o`rnatilgan tartibda belgilangan muddatda Respublika Haj jamoatchilik Kengashiga taqdim etish;

- Haj masalasiga oid fuqarolarning yozma va og`zaki murojaatlarini ko`rib chiqish;

- Haj safariga borib kelgan fuqarolarning hisobini yuritish va monitoring qilish.

Tavsiya etish jarayonida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish:

- navbatdagi fuqarolar bilan Haj safariga borishi va unga qo`yiladigan talablar bo`yicha suhbat uyushtirish;

- 46 yoshgacha bo`lgan ayollarning mahrami mavjudligiga e'tibor qaratish;

- fuqaroning pasporti belgilangan talabga javob berishi, chiqish vizasi mavjudligi va muddatini ko`rib chiqish;

- fuqaro Saudiya Aribistoni Podshohligiga borib kelish va belgilangan amallarni bajarish uchun salomatligi to`g`ri kelishi bo`yicha tibbiy ko`rikdan o`tkazish va xulosa olish;

- yuqoridagi vazifalar bajarilgandan so`ng, fuqarodan Haj safariga borish uchun belgilangan pul to`lovini qabul qilish; (Izoh: To`lovni o`rnatilgan muddatda amalga oshirmagan fuqaro ro`yxatdan chiqariladi).

- Respublika Haj jamoatchilik Kengashining talablari asosida Haj safariga borish uchun to`lovni amalga oshirgan fuqarolarning hujjatlarini tayyorlash va taqdim etish.
Haj safariga borish yuzasidan murojaat etayotgan fuqaroga ro`yxatga kiritish, tavsiya etish, tibbiy ko`rikdan o`tkazish va Haj bilan bog`liq boshqa masalalar uchun biron ish yuklash yoki mablag` talab qilish qat'iyan man etiladi.

Регламент **(255 kb)**

Haj(151 kb) Umra(154 kb) Ma'lumotnoma(75 kb) Bayon(105 kb)

Murojaat uchun: Andijon viloyati Haj va Umra Hay`ati ga murojaat etishingiz mumkun.


Manzil: Andijon viloyati hokimligi

Andijon shahri, A.Fitrat ko`chasi, 239 uy

Hamraqulov Doniyorbek

Telefon: 0 (374) 223-29-47

e-mail:hajumra@andijan.uz



Shahar va tuman hokimliklari:

Hududlar	e-mail:	Telefonlar:
Andijon shahar hokimligi	andijan@andijan.uz	0 (374) 223-94-95
Honobod shahar hokimligi	honobod@andijan.uz	0 (374) 734-15-86
Andijon tumani hokimligi	andtumani@andijan.uz	0 (374) 373-14-63
Asaka tumani hokimligi	asaka@andijan.uz	0 (374) 233-00-01
Baliqchi tumani hokimligi	baliqchi@andijan.uz	0 (374) 323-22-11
Buloqboshi tumani hokimligi	buloqboshi@andijan.uz	0 (374) 773-21-50
Bo`z tumani hokimligi	boz@andijan.uz	0 (374) 333-11-64
Jalaquduq tumani hokimligi	jalaquduq@andijan.uz	0 (374) 755-11-07
Izboskan tumani hokimligi	izboskan@andijan.uz	0 (374) 312-25-15
Marhamat tumani hokimligi	marhamat@andijan.uz	0 (374) 391-19-03
Oltinko`l tumani hokimligi	oltinkol@andijan.uz	0 (374) 354-70-12
Paxtaobod tumani hokimligi	paxtaobod@andijan.uz	0 (374) 711-30-00
Ulugnor tumani hokimligi	ulugnor@andijan.uz	0 (374) 761-11-26
Xodjaobod tumani hokimligi	xojaobod@andijan.uz	0 (374) 741-21-15
Shahrixon tumani hokimligi	shahrixon@andijan.uz	0 (595) 200-04-72
Ko`rg`ontepa tumani hokimligi	korgontepa@andijan.uz	0 (374) 723-14-65

